



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

*2022- yil
yanvar-sentabr*



NAMANGAN VILOYATINING DOIMIY AHOLISI.

2022- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Namangan viloyatida 2022- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni **2979,3** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **48,1** ming kishiga yoki **1,6 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1932,3** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **64,9 %**), qishloq aholisi soni **1047,0** ming kishi (**35,1 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

2979,3 ming kishi

Tabiiy o'sish

+49,9 ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi.

Shahar



64,9%


Qishloq



35,1%

Namangan viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar.

2022- yil yanvar-sentabr, minq kishi



Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi.

2022- yil 1- yanvar holatiga



72,3 yosh



75,6 yosh

2022-yilning 1-yanvar holatiga Namangan viloyati aholisining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **73,9** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **72,3** yoshga, ayollar uchun esa **75,6** yoshga teng.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi.

2022- yil 1- oktabr holatiga


Erkaklar

Ayollar



50,8%

49,2%



1513,7 ming kishi

1465,6 ming kishi

Doimiy aholi sonining hududlar bo'vicha taqsimlanishi.

1- oktabr holatiga, ming kishi

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da
Namangan viloyati	2914,2	2979,3	102,2
Namangan sh.	657,0	673,8	102,6
tumanlar:			
Mingbuloq	130,4	133,2	102,1
Kosonsoy	216,4	221,3	102,3
Namangan	182,7	187,1	102,4
Norin	168,5	171,6	101,8
Pop	225,8	230,1	101,9
To'raqo'rg'on	232,0	237,9	102,5
Uychi	220,8	225,8	102,3
Uchqo'rg'on	177,2	180,7	102,0
Chortoq	205,1	209,1	102,0
Chust	272,9	278,2	101,9
Yangiqo'rg'on	225,4	230,5	102,3


Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi.

Namangan viloyatida 2022- yil 1-oktabr holatiga 1 kvadrat kilometrga o'rtacha **400,4** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **9,0** kishiga ortgan (2021- yilda 1 kv.km.ga **391,4** kishi).


Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko'rsatkichi Namangan shahrida **4492,0** kishi, Namangan tumanida **935,5 kishi**, To'raqo'rg'on tumanida **881,1** kishi, Norin tumanida **817,1** kishi, Uychi tumanida **752,7** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Pop tumanida **79,1** kishi, Chust tumanida **296,0** kishi, Kosonsoy tumanida **425,6** kishini tashkil etgan.

Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi.

1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR.




Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti.

2022- yil yanvar-sentabr, kishi

Namangan shahar	15 407	30,9 ‰
To'raqo'rg'on	5 145	29,2 ‰
Chust	5 109	24,7 ‰
Uychi	4 666	27,9 ‰
Yangiqo'rg'on	4 511	26,4 ‰
Kosonsoy	4 390	26,7 ‰
Pop	4 139	24,2 ‰
Namangan	3 890	28,0 ‰
Chortoq	3 828	24,7 ‰
Uchqo'rg'on	3 294	24,6 ‰
Norin	3 070	24,1 ‰
Mingbuloq	2 518	25,5 ‰

2022- yil yanvar-sentabr oylarida **60,0** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **27,1** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2021- yilga nisbatan **-0,1** promillega kamayganligini kuzatildi (2021- yilda **27,2** promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti.


2022- yil yanvar-sentabr, kishi

Namangan shahar	2471	5,0 ‰
Chust	1005	4,9 ‰
Uychi	937	5,6 ‰
Pop	761	4,5 ‰
Yangiqo'rg'on	699	4,1 ‰
To'raqo'rg'on	674	3,8 ‰
Kosonsoy	660	4,0 ‰
Norin	647	5,1 ‰
Chortoq	640	4,1 ‰
Uchqo'rg'on	590	4,4 ‰
Namangan	569	4,1 ‰
Mingbuloq	365	3,7 ‰

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **10,0** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **4,5** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan -0,1 promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **4,6** promille bo‘lgan).


O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi.

2022- yil yanvar-sentabr, kishi



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **54,3 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,3 %** i – o‘simtalardan, **9,6 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **6,4 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,7 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **1,5 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **14,1 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR




Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti.

2022- yil yanvar-sentabr, birlik

Namangan shahar	3 563	7,1 ‰
Chust	1 452	7,0 ‰
To'raqo'rg'on	1 230	7,0 ‰
Pop	1 157	6,8 ‰
Kosonsoy	1 089	6,6 ‰
Uychi	1 078	6,4 ‰
Yangiqo'rg'on	1 030	6,0 ‰
Uchqo'rg'on	900	6,7 ‰
Namangan	850	6,1 ‰
Chortoq	847	5,5 ‰
Norin	828	6,5 ‰
Mingbuloq	635	6,4 ‰

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **14,7** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,6** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **-1,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 7,7 promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti.

2022- yil yanvar-sentabr, birlik

Namangan shahar	826	1,7 ‰
Chust	341	1,6 ‰
Pop	253	1,5 ‰
To'raqo'rg'on	249	1,4 ‰
Uychi	230	1,4 ‰
Chortoq	227	1,5 ‰
Kosonsoy	213	1,3 ‰
Uchqo'rg'on	212	1,6 ‰
Norin	207	1,6 ‰
Yangiqo'rg'on	194	1,1 ‰
Namangan	183	1,3 ‰
Mingbuloq	115	1,2 ‰

2022- yil yanvar-sentabr oylarida **3,2** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,5** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,5** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yil yanvar-sentabr oylarida **1,0** promille bo'lgan)

AHOLI MIGRATSIYASI.

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)


2022- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni **1 943** kishini, Ko'chib ketganlar soni esa 3 667 kishini tashkil etdi.

Namangan viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni.

2022- yil yanvar-sentabr, kishi


	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar
	Jami	Jami
Namangan viloyati	1 943	3 667
Namangan shahri	609	832
tumanlar:		
Mingbuloq	8	144
Kosonsoy	85	211
Namangan	153	181
Norin	169	321
Pop	171	343
To'raqo'rg'on	149	188
Uychi	186	217
Uchqo'rg'on	188	349
Chortoq	14	230
Chust	82	468
Yangiqo'rg'on	129	183

JAMI KO'CHIB KELGANLAR.




Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti.

2022- yil yanvar-sentabr, kishi




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **1,9** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **0,9** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **-0,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **1,2** promille bo'lgan).

JAMI KO'CHIB KETGANLAR.



Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti.

2022- yil yanvar-sentabr, kishi



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 3,7 mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti 1,7 promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan -0,5 promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 2,2 promille bo'lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar.

Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘shilib, o‘lganlar va muayan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayriladi.

Tug‘ilish – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

O‘lim sabablari – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 69 227-84-91